Aviatsiyaning kelajagi shu yerdan boshlanadi: Uzbekistan Airways uchuvchilar maktabining to‘rtinchi bitiruvchilari!

2026 8 Iyul

O‘quv-mashg‘ulot markazimizda yangi avlod uchuvchilariga tantanali ravishda sertifikatlar topshirildi. Bu aviakompaniyaning tarkibiy bo‘linmasi negizida tashkil etilgan Maktabning to‘rtinchi muvaffaqiyatli bitiruvchisi hisoblanadi.


UZBEKISTAN
AIRWAYS



Bunday keng ko‘lamli ta’lim loyihasining amalga oshirilishi mamlakat rahbariyatining har tomonlama qo‘llab-quvvatlashi hamda uchuvchilar tarkibini kompleks tayyorlash bo‘yicha Yevropaning yetakchi kompaniyasi bilan yo‘lga qo‘yilgan muvaffaqiyatli hamkorlik tufayli imkonli bo‘ldi.


UZBEKISTAN
AIRWAYS



Marosimda Boshqaruv raisining Parvoz ishlarini tashkil etish bo‘yicha o‘rinbosari Shaxzod Ikramov, Parvoz xizmati departamenti direktori Sergey Kim va O‘quv-mashg‘ulot markazi direktori Rustam Turabov, aviakompaniya xodimlari va bitiruvchilar ishtirok etdi. Rahbarlar sohani rivojlantirish uchun o‘zimizning yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning strategik ahamiyatini ta’kidladilar.


UZBEKISTAN
AIRWAYS



Muhim bosqich: Bitiruvchilar bugungi kunda Uzbekistan Airways aviaparkining yarmidan ko‘pini tashkil etadigan Airbus A320 oilasiga mansub havo kemalarini boshqarish uchun ruxsatnoma oldilar.

Shaxzod Ikramov o‘zining tabrik so‘zida bosib o‘tilgan yo‘lning muhimligini ta’kidladi:

Saflarimiz kengayib borayotganidan xursandmiz. Bo‘lajak uchuvchilar O‘zbekistonda va xorijda o‘qish davri ulardan katta fidoyilik talab qilganini, ustozlarimiz esa bor mehrini berganini doimo yodda tutishlarini istardim. Sizga omad tilayman va Uzbekistan Airways jamoasiga xush kelibsiz!


UZBEKISTAN
AIRWAYS
UZBEKISTAN



Kasb talab qiladigan yuksak mas’uliyatga alohida e’tibor qaratildi. Markaz direktorining Parvoz tayyorgarligi bo‘yicha o‘rinbosari Erkin Gulyamov yosh mutaxassislarga oq yo‘l tiladi:

“Ikki yil ko‘z ochib yumguncha o‘tib ketdi, bugun esa sizlar — uchuvchisizlar. Ortingizda insonlar turganini va ularning mas’uliyati sizning zimmangizda ekanini doim yodda tuting. Osmoningiz musaffo bo‘lsin!”.



Tadbir yakunida yosh uchuvchilarga uzoq kutilgan sertifikatlar va esdalik sovg‘alari topshirildi.

Bitiruvchilarimizni samimiy tabriklaymiz! Sizning yutuqlaringiz bilan faxrlanamiz va xavfsiz parvozlar tilaymiz!